

Qo'shni uyning eng yuqori xonasiga yaqindan beri o'n to'qqiz-yigirma yoshlardagi bir yigitcha kelib yashay boshladi. Men uni bironta oliy yoki o'rta-maxsus bilim dargohida o'qisa kerak, deb o'ylagandim. Odatda men yangi qo'shniمنى uning xonasi ro'parasidagi o'z xonamdan ko'rib turar edim. U ozg'ingina, rangi so'lg'in, negadir xafa ko'rinardi. Doim xona burchagida chiroq yorug'ida o'tirardi. Goh qandaydir kitobni o'qir, gohida esa, daftarga nimalarnidir yozayotgan yoki nimanidir yod olayotgan bo'lardi.

Men sovuq qish kechalarining birida uyga qaytib kelib uni ko'rmagunimcha, unga e'tibor bermagan ekanman. Nima uchundir xonamga kirdim, nogoh unga ko'zim tushdi. Yigitcha o'z o'rnida chiroq yonida o'tirar, boshini ochiq turgan daftarga qo'yib olgandi, "Qiyin darslar va uyqusiz tunlar uni charchatgan bo'lsa kerak", o'yladim men. Uning ko'zlaridagi uyquni sezganim bois, fikran uni o'z joyiga borib yotishiga undadim va u boshini ko'tarmaguncha joyimdan jilmadim. Shundagina uning ko'zlari yoshga to'la hamda shu ko'z yoshlari daftar sahifasiga tomganini ko'rdim. Siyoh ko'z yoshlaridan bo'yalib, o'qib bo'lmaydigan holatga kelgan edi. Ozdan keyin yigitcha o'ziga keldi, qalamini olib, ishini davom ettirdi. Bu qorong'u kechada faqir, baxtsiz yosh yigitchani yolg'iz, bo'm-bo'sh sovuq xonada, olovsiz, issiq kiyimsiz ko'rish meni o'ylantirib qo'ydi. Uni hayot quvonch va tashvishlari o'z domiga olgan, taqdir zarbalari zor qaqshatgan, ammo u na taskin topa olgan edi, na suyanch. Bu horg'in, g'ayratsiz siymo ortida toza, azoblanayotgan qalb borligiga va bu ruhiy azoblardan jismi qovjirab, kundan-kun zaiflashib borayotganiga ishonchim komil edi. To yigitcha daftarini yopib, o'rnidan turib, uxlashga ketmaguncha men joyimda turaverdim. Bu vaqtda allaqachon tun zulmati chekingan, undan yer yuzida asar ham qolmagan edi, tunning oxirgi daqiqalarini ham tong shafag'i egallay boshlagan edi.

Shundan so'ng ko'pgina tunlar men qo'shni yig'layotganini yoki boshini quyi solib o'tirganini, yana o'z joyida yotib olib, xuddi yaxshi ko'rgan kishisini yo'qotib qo'ygan ayolga o'xshab, ingrayotganini kuzatdim. Gohida u xonaning u yog'idan-bu yog'iga tinmasdan yurar, oxiri madori qurib, kursiga o'tirib qolar edi.

Uning g'amiga sherik bo'lgan men ham ahyon-ahyonda ko'z yoshi to'kardim. Agar iloji bo'lsa edi, unga do'st sifatida o'zini asrashini va o'z g'amiga meni sherik qilishini iltimos qilar edim. Bu qo'limdan kelardi ham, ammo yigitchani xijolatga qo'yishdan va uning qalb tubida yashiringan sirlaridan voqif bo'lishdan qo'rqardim. Axir o'z sirlarini yashirib yurish ham insonga xos narsa emasmi!

O'tgan kun derazadan qaragam, yigitchaning xonasi tinch va qorong'u. Men uni biror yoqqa chiqqan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Lekin, shu zahoti zaif, xasta ingrash qulog'imga chalindi. Bu tovush meni hayajonga soldi va men uni bir baxtiqaroning qalb tubidan chiqayotganini his etdim, o'z yuragimda ham uning aks etganini sezdim. O'zimga o'zim: "Bu yigitcha kasal, yonida esa unga yordam beradigan hech kim yo'q", dedim.

Taqdir meni u bilan bekorga uchrashtirmagandi. Xizmatkorga darhol fonusni keltirishni buyurdim va uydan chiqib qo'shni nikiga yo'l oldim. Uy bo'sag'asidan hatlab kirishim bilan meni qabr ustida marhumga vidolashuv so'zlari aytayotgan odamdagi tushkunlik chulg'ab oldi. Kirganimni payqab, yigitcha, xuddi uyqudan yoki mangulikdan o'ziga kelgandek, ko'zlarini ochdi. U oldida xira fonusni va notanish odamni ko'rib, hayratlandi. Bir muddat u jimgina menga tikilib turdi. Men uning karavotiga yaqin borib o'tirdim va dedim: "Men sizning qo'shningizman. Sizning og'ir ingrashingizni eshitib, bu yerda bir o'zingiz ekanligingizni tushundim. Bu narsa meni hushyor qildi va men keldim. Balki yordamim tegar? O'zingizni qanday his qilayapsiz?". Yigitcha qo'lini ko'tarib, peshonasiga qo'ydi. Men ham uning peshonasiga kaftimni qo'ydim, uning peshonasi yonardi. U qattiq isitmalab yotardi. So'ng men uning badaniga razm soldim; qarshimda eti borib ustixoniga yopishgan mushtdek jussa yotardi, u kiyimi ichida arang ko'rinardi.

Men xizmatkorimga isitma dorisi olib kelishni buyurdim va uni bemorga ichirdim. U tezda o'ziga keldi. Menga ziyrak nigohlari bilan qarab, minnatdorchilik bildirdi. Men undan: "Ukam, sizni nima bezovta qilayapti?" deb so'radim. "Hech narsa", deb javob berdi. Shunda men uning qachondan buyon bunday yotganini bilmoqchi bo'ldim. U buni eslay olmasligini aytdi. "Sizga tabib kerak", dedim unga. "Uni bu yerga chaqirsam maylimi?" Yigitcha biroz qaddini ko'tarib, yoshlangan ko'zlari bilan qaragancha siniq ovozdagi: "Tabib faqat o'limdan hayotni afzal ko'radiganlarga yordam qiladi", dedi. Shundan so'ng u ko'zlarini yumdi va yana hushidan ketdi. Men bemorning xohish-irodasiga qaramasdan tabibni chaqirish lozimligini angladim.

Tabib issiq joyidan qo'zg'atib, sovuq tunda qorong'u ko'chalardan yurishga majbur qilishganidan norozi holda kirib keldi. Lekin, men uning ko'nglidagi gapni bilar edim, shuning uchun hech narsa demadim. Tabib bemorning tomirini ushlab ko'rib, qulog'imga: "Bemoringiz o'lim to'shagida. Agar Olloh aralashmasa, uning umri oz qolibdi, bandasiga ayon bo'lmagani yaratganga ayondir", dedi. Shundan so'ng tabib o'tirib, kuni bitgan bemorlar ichadigan dorilardan yozib berdi. Go'yo bu bilan tabib o'z hamkasblari dorishunoslarga qul bemorlardan hayot solig'i olib qolishni buyuradi.

Men tabibni rozi qilganimdan keyin u mamnun holda chiqib ketdi. Bemor yigitcha oldida uzun va zulmatli tunni o'tkazdim. Tong otguncha goh unga dori ichirdim, goh uni o'ylab yig'ladim. Yigitcha o'ziga keldi, u yoq-bu yoqqa qarab menga ko'zi tushdi va so'radi: "Siz hali ham shu yerdamisiz?". Men: "Ha, dedim, sal o'zingizga kelib qoldingizmi?". "Ha, shunaqaga o'xshaydi", dedi u. Men yana so'radim: "Birodar, malol kelmasa, ayting-chi, bu yerda nima qilaysiz? Mehmonmisiz yoki shu yerlikmisiz? Sizni kasallik qiynayaptimi yo boshqa bir sir bormi?". U: "Men har ikkisidan azobdaman", dedi. "Sizga nima bo'lganini aytib bera olasizmi? deb unga murojaat qildim. Xuddi do'st o'z do'stiga ko'nglini ochgan kabi o'zingizning tashvishlaringizni aytib bera olasizmi? Shunda men sizning tashvishlaringizni xuddi o'zingiz hal qilgandek hal qilib berardim". Bemor menga savol bilan javob berdi: "Agar Olloh menga hayot bersa, mening sirimni saqlashga, agar o'lim haq bo'lsa, mening vasiyatimni bajarishga va'da berasizmi?". Men: "Ha", deb uni ishontirdim. Shundan so'ng yigitcha dedi: "Men sizning va'dangizga ishonaman, chunki, jussasida siznikidek shunday ulug' yurak urib turgan inson yolg'onchi ham, sotqin ham bo'lishi mumkin emas".

"Mening ismim falonchi, falonchining o'g'liman. Otam olti yoshimda meni yo'qchilikka topshirib, o'lib ketgan. Meni otamning ukasi amakim o'z tarbiyasiga oldi. Amakim qolgan barcha qarindoshlarim ichida eng yaxshisi edilar, ko'ngillari toza, mehribon, rahmdil odam edilar. Men ularnikida kichkina qizlari qanday erkin yashasa, shunday erkin yashadim. Uning yoshi ham men tengi yoki biroz kichikroq edi. Amakim o'z qizlari oldida uzoq yillar Ollohdan so'rab yetolmagan o'g'il farzand akasini ko'rib quvonardi. U menga xuddi qiziga qanday g'amxo'r bo'lsa, shunday g'amxo'r edi, hatto maktabga ham ikkalamizni bir kunda yuborganlar.

Men u qizga xuddi akaday samimiy munosabatda edim va unga juda o'rganib qoldim. U bilan do'stlashib, ota-onamni olib ketgan va vaqti-vaqti bilan o'zini bildirib turadigan g'am-alam bois yo'qotgan quvonch va baxt onlarini tuydim.

Singlim voyaga yetib, alohida xonada yashash vaqti kelmaguncha biz doim birga bo'ldik. Birga maktabga borar va birga qaytar edik, hovlida o'ynar yoki bog'da sayr qilardik, sinfda dars qilish uchun uchrashardik yoki uxlashdan oldin suhbatlashardik. Bizning

qalblarimizda sevgi olovi yona boshlagan va uni hech qanday taqdir to'siqlari yenga olmaydigandek edi. Hayot go'zalliklarini men faqat uning yonida his etardim, baxt nurini faqat uning tong ufqi kabi musaffo kulgularida ko'rar edim. Uning oldida o'tkazgan bir soatim uchun hayotimning barcha quvonch va halovatlaridan kechgan bo'lardim. Aqlu zakovat, yaxshilik, samimiyat, sadoqat va yaxshi tarbiyani men faqat unda ko'rdim va boshqa qizlarda bu sifatlarni tan olishni istamas edim.

Hozirda meni zulmat qorong'usi va g'amu tashvishlar o'rab olgan bo'lsa ham, uzoqdan bolalik kunlarimizda bizni o'rab turgan oq nur taratuvchi huzur-halovatning qanotlarini ko'ra olaman. Shu bois, biz ikkimiz ham o'shanda xuddi billur qadah ichidagi may kabi nur sochar edik. Men bizning quvonchlarimiz, orzu va istaklarimiz guvohi bo'lgan go'zal bog'ni tasavvur eta olaman, uni xuddi oldimda ko'rgandek ko'ra olaman, uni, uning suvlarini, tosh yo'llarini, daraxt novdalarini, gullarning barcha ranglarini hamma-hammasini, hatto, biz kun so'ngida birga o'tirishgan o'sha toshli o'rindiqni ham. Biz suhbatlashish yoki gullardan gulchambar yasash uchun, yoki qaysidir kitobni varaqlash uchun yoki bo'lmasa kim yaxshi chizish bo'yicha bahslashish uchun shu yerda uchrashar edik. Men darslarimiz tugagandan keyin doimo uning soyasida o'zimizga qulay joy topib, o'zimizni xuddi onalari bag'rida orom topgan qush bolalari kabi his qilgan o'sha ko'm-ko'k o't-o'lanlarni yaqqol ko'z oldimga keltira olaman. Yana men ariq va buloqchalar oldida kavlagan kichik-kichik hovuzcha-larimizni tasavvur eta olaman. Biz ularni suv bilan to'ldirar edik, so'ng uning atrofiga o'tirib olib, u yerga tashlagan baliqchalarimizni qo'limiz bilan tutib o'ynar edik. Agar ovimiz zo'r bo'lsa, mamnun bo'lar edik. Men qushlar boqadigan ajoyib tillarang qafaslarni ko'z oldimga keltira olaman, biz soatlab ularning yonida o'tirib, ularni kuzatar edik hamda ularning g'ayrioddiy tumshuqlarini tomosha qilar edik. Qushlar suv ichayotganida yoki don yeyishayotganida biz ularga laqab qo'yib olar edik va ular bilan gaplashardik. Ularning chug'ur-chug'urini eshitib bizning so'zlarimizga javob berishayapti deb o'ylar edik.

Amakimning qiziga bo'lgan sirli his-tuyg'ularim aka-singillik rishtasi edimi yoki olovli muhabbatimi, buni hozir aytishga o'zimga, lekin aniq bilamanki, bu noaniq va noumid tuyg'u edi. Qiz bolaning musaffo yuragiga g'am-sitam yukini ortganlarning birinchisi bo'lmaslik uchun men unga o'zimga sof muhabbatimni oshkor etmadim. Chunki men uni, ya'ni eng yaxshi ko'rgan amakimning qizini hamda erta bolalikdagi o'rtog'imni juda e'zozlar edim. Bir-birimizning umr yo'llarimizni birlashtirish hatto xayolimga ham kelmas edi. Uning ota-onasi menga o'xshash bu bechora, baxtsiz yigitni xuddi qizlaridek yoqtirishlariga ishonmas edim. Men undan barcha sevishganlar ehtiyoj sezadigan narsalarni talab qilmas edim, chunki men uning qadrini juda baland tutar edim. Uning o'tkir nigohlariga qarash bilan uning qalbi tubida men uchun qancha joy ajratganiga e'tibor qilmas edim, balki aka sifatida joy ajratgandir, balki sevgilisi sifatida. Amakimning qiziga bo'lgan sevgim xuddi ruhoniylar maloyika qarshisida tiz cho'kib, ta'zim qilishday gap edi, go'yo u ilohiy ma'budayu men unga bosh ko'tarib qarashga jur'at qilmagan xudojo'yman.

Toki amakim og'ir kasallikka chalinib vafot etgunlaricha biz shunday yashadik. Amakimning xotiniga umid bilan aytgan oxirgi so'zlari shunday bo'ldi: "O'lim bu bolaga qilayotgan g'amxo'rlikimga xalaqit bermoqda, men unga qanday ota bo'lgan bo'lsam, sen shunday ona bo'lgin. Men senga o'limimdan keyin u mendan boshqa hech narsasini yo'qotmasligini vasiyat qilaman".

Ammo aza kunlari o'tmasdanoq men o'zimga nisbatan boshqa munosabatni, boshqacha qarashlarni seza boshladim. Qalbidam shu paytgacha yot bo'lgan o'zimga bir his-tuyg'u paydo bo'ldi. Meni hadik va umidsizlik qamrab oldi, umrimda birinchi marta bu uyda begonaligimni, yorug' jahonda musofir ekanimni o'ylab ketdim.

Kunlarning birida xonamda o'tirgan edim, xonamga istarasi issiq, ochiqqina xizmatkor ayol kirib keldi. U to'g'ri oldimga keldi-da, dedi: "Xo'jam, xonim sizga bir gapni aytib qo'yishimni buyurdilar; yaqinda u qizini turmushga chiqarar ekan, siz va singlingiz voyaga yetganingiz bois amakingiz vafotidan keyin sizning bu yerda qolishingiz kuyovda shubha uyg'otishi mumkin. Hozir siz yashayotgan xonada kelin-kuyovlarga joy hozirlanar ekan. Xonim o'zlariga tegishli qaysi uyni xohlasangiz o'shanga o'tib yashashingiz mumkinligini aytdilar. U sizga barcha shart-sharoitlarni yaratib berib, ayriliq azoblarini his etmas ekansiz".

Bu so'zlar otilgan o'qday yuragimni teshib o'tdi. Shunday bo'lsa-da, o'zimni qo'lga olib: "Mening istagim nima bo'lardi, Olloh rozi bo'lsa, bo'lgani", dedim.

Xizmatkor ayol yumushiga ketdi, men esa ko'z yoshlarimga erk berib qorong'u tushguncha bir o'zim yolg'iz qoldim. Jomadonimni olib unga kiyimlarimni va kitoblarimni joyladim va o'zimcha o'yladim: "Bu hayotda meni baxtli qiladigan hech narsa qolmadi, hatto men hurmat qiladigan va meni ham hurmat qiladigan yaqin kishimdan-da judo bo'ldim. Endi na quvona, na afsus qila olaman". Shundan so'ng bildirmaygina bu uydan chiqib ketdim. Ammo ketishimdan oldin so'ng bor shaffof parda ortida tinchgina uxlayotgan sevgiligimga nazar tashladim. Bu mening u bilan so'nggi uchrashuvim edi.

Qasamki, jonajon Bag'dodni gina qilib tark etmadim,

Eh, qaniydi Bag'dodda umrbod qololsam!

Meni g'am qiynadi, shu bois pinhona ketdim,

Hatto do'stlar bilan xayrlashishga ham qolmadi mador.

Xuddi Odam alayhissalom jannatni tark etganidek, men ham uzoq vaqt baxtli yashab kelayotgan uyimni tark etdim. U yerdan karaxt, qochoqqa o'xshab ayanchli tusda musibatlar va xavf-xatarlardan boshi chiqmagan kishi kabi ortiq uchrashishga umidim yo'q holda taqdirga tan berib, g'ariblik sari yuz tutdim.

Baxtiyor onlarimdan nishona sifatida ozgina pulim bor edi. Yuqori qavatdagi mana shu bo'sh xonani ijaraga oldim, lekin bu yerda loaqal bir soat ham turolmadim, yuragimni hasrat va g'amdan ozod qiladigan dori topish ilinjida goh u yerga, goh bu yerga ko'chib yura boshladim. Bir necha oylik uzoq safarga jo'nab ketdim. Bir shaharga kelib qo'ndim demaguncha ko'nglim boshqa shaharni tusayveradi, bir joyga quyosh chiqqan boshlaganida yetib borsam, botayotganida boshqa joyda bo'lardim.

Shunga o'rganib qolgan edim. Ammo maktabda darslar boshlanib qoldi va men bolaligim o'tgan shaharga, amakimning uyiga qaytdim. Endi odamlar orasida yashasam-da, yakka yashash orzusida hamon ularning ko'ziga tashlanavermasdim. Men o'zim bilan o'zim bo'lishga, hech narsaga e'tibor qilmaslikka, o'tmishimni unutishga, o'tmishimni eslatadigan barcha narsalardan qochib yashashga qaror qilgandim.

Maktab va uydan boshqa hech qayerga bormasdim. Qalbidam o'tmish kechinmalarimdan hech vaqo qolmagandi. Faqat gohida paydo bo'ladigan g'amgina ruhimni bezovta qilib turar edi, shunda men o'zimga yolg'izligimdan achchiq-achchiq yig'lab olardim. Buni Ollohdan boshqa hech kim bilmasdi, toki qalbim sokinlikka erishguncha shu holat davom etdi.

Men birmuncha muddat shunday yashadim. Kecha esa qancha pulim qolganini bilmoqchi bo'ldim. Qarangki, pulim qolmabdi va men bundan keyin qanday yashashimni o'ylab qoldim, boz ustiga yana o'qish pulni ham to'lash zarur edi. Ahvolim tang ekanligini o'ylab ancha dovdirab qoldim, nima qilishimni bilmasdim. Shunda kitoblarimni ko'zdan kechirdim, eng zarurlarini qoldirib,

This is not registered version of TotalDocConverter

qolganini ko'rib o'tirgan bo'ldi. U yerda kuni to'yi turdim, ammo kitoblarimni to'rttdan bir bahosiga ham oladigan xaridor bo'lmadi. Charchagan va jahlim chiqqan holda uyga qaytdim, shu lahzalarda mendan-da baxtsizroq va mendan-da g'aribroq inson yo'q edi.

Uy darvozasi oldida qo'shnilardan meni so'rab turgan qandaydir ayolga ko'zim tushdi. Men uni tanidim. U amakimning uyidagi xizmatkor ayol edi. Men: "Siz falonchimi?" deb so'radim. U: "Ha" deb javob berdi. Men u ayoldan nimaga kelganini so'radim, ayol menda ishi borligini aytdi. U bilan o'z xonamga ko'tarildim, yolg'iz qolganimizda undan nima gapi borligini so'radim. U gap boshladi: "Uch kundan buyon seni qidirmagan joyim qolmadi, seni na birov ko'rgan, na birov eshitgan. Mana, oxiri seni bugun topdim". Shunday deb ayol ho'ngrab yig'lab yubordi. Uning yig'isi meni cho'chitib yubordi. Marhum amakimning uyida biror bir kor-hol bo'ldimikin deb qo'rqinch bilan xizmatkor ayoldan nimaga yig'layapsiz deb so'radim. U ajablendi: "Nahotki amakimning uyida nima bo'lganidan bexabar bo'lsang?" dedi. "Xabarim yo'q, deb javob berdim. Xo'sh nima bo'ldi?". Shunda xizmatkor ayol kiyimining qatidan bir xat olib, menga uzatdi. Men xatni ochdim, u mening sevgilimdan edi. Men hech qachon yodimdan chiqmaydigan so'zlarni o'qiy boshladim: "Men bilan xayrlashmasdan ketib qolibsang, lekin bundan xafa emasman. Ammo bugun men o'lim to'shagida yotibman, men bilan oxirgi bor xayrlashishga kelmasang, seni kechirmayman". Qo'limdagi xatni irg'itib, eshik tomon talpindim. Xizmatkor ayol yengimdan tortib to'xtatdi: "Xo'jam, yo'l bo'lsin?". "U kasal, men uni, albatta, ko'rishim kerak", deb qichqirdim unga. Ayol biroz sukut saqladi. So'ng hazin ovozda: "Endi foydasi yo'q, xo'jam. Taqdirga tan bering", dedi.

Yuragimda bir nima chirt uzildi, butun dunyo qorong'ulashdi. Turgan joyimda hushsiz yiqildim va anchagacha shunday yotdim. Nihoyat ko'zimni ochib, tun cho'kkanini, yonimda esa xizmatkor ayol yig'lab turganini ko'rdim. "Ey ayol, nahotki aytganlaring rost bo'lsa?" unga murojaat qildim. "Ha" deb javob berdi u. Men undan hammasini bir boshdan aytib berishini so'radim.

U quyidagilarni hikoya qildi: "Sen ketganingdan keyin xo'jam, amakimning qizi o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Sen ketgan kuning u mendan nima uchun bunday qilganingni so'radi va men unga onasi aytgan gaplarni senga yetkazganim uchun ketganingni aytdim. Shunda u bechora dodlab: "U sho'rlik endi nima qiladi! Axir ular bizning muhabbatimiz haqida bilishmaydi-ku!" dedi. Go'yo qalbidagi yaralarni davolaganday seni hech eslamadi. Bir necha kun ichidayoq uning ruhiy xastaligi jismiga o'tdi. U o'zini juda yomon his qila boshladi. Oldingi husnidan nom-nishon qolmadi, lablaridagi mayin tabassum allaqayoqqa g'oyib bo'ldi, keyin u to'shakka bir yotib qolganicha boshqa qaddini ko'tara olmadi. Qizining bu ahvolidan onaning yomon kayfi uchdi, uni turmushga berish haqidagi o'ylarni unutdi, axir oldinlari tunu kun xayolida faqat shu gaplar bo'lar edi-da. U tabib chaqirtirdi va qiziga qarab turish uchun enaga ham yolladi. Tabib ham, enaga ham yordam bera olmadi. Qizning kundan-kun ajali yaqinlashib kelardi. Bir necha kun oldin yonida o'tirganimda, uning asta qimirlab qo'yganini sezdim. Men unga tomon engashdim, u qo'lidan ushlabimni ishora qildi. Men qo'lidan ushladim va u bir amallab turib o'tirdi, keyin soat necha bo'lganini so'radi. Men: "Qorong'u tun", deb javob berdim. Uyidagilarning hammasi uyqudaligiga va mening bir o'zim qolganimga ishonch hosil qilgandan so'ng:

"Amakimning o'g'li qayerdaligini bilasanmi?" deb so'radi. Men hayron qoldim, chunki u ko'pdan buyon sen haqingda gapirmagan edi-da. "Ha, u qayerdaligini bilaman", dedim. Aslida sening qayerdaligini bilmadim, lekin u bechorani noumid qilmaslik uchun shunday dedim. Baribir uning kuni bitgan edi. U mendan: "Hech kimga bildirmasdan mening xatimni unga yetkaza olasanmi?" deb so'radi. Men: "Bu narsa qo'limdan kelmas-ov, xonim..." dedim. Ammo u siyohdonni so'radi va qo'lingdagi mana shu xatni yozdi. Tong otgach, uydan chiqdim-da, seni qidirishga tushdim. Har bir o'tkinchining yuziga tikilib qarayman, senga o'xshataman, lekin u boshqa bo'lib chiqardi. Yana quyosh bota boshladi, kech kirdi va men uyga qaytdim. Uyga yaqinlashganimda qulog'imga go'yanda xotirlarning tovushi chalindi va men ajal o'qi nishonga tekkanini, o'zining tarovati va go'zalligi bilan olamni to'ldirib turgan ajoyib atirgul so'nggi yaprog'ini to'kkanini angladim. Men yolg'iz bolasini yo'qotgan ona kabi unga juda kuyundim. Darhaqiqat, o'sha kuni hamma yig'ladi. Men uchun eng og'iri shu bo'ldiki, u umrining oxirgi daqiqalarida seni ko'rishni umid qilgan edi va bu orzusi ushalmay qoldi. Men bu xatni yashirib yurib, seni axtardim va oxiri topdim".

Men u ayolga minnatdorlik bildirib, kuzatib qo'ydim. U ketdi... Bir o'zim qolgach, ko'zimni qorong'ulik qoplayotganini sezdim va hech narsani ko'rmay qoldim. Sizni ko'rmagunimcha nimalar bo'lganini eslay olmayman".

Hikoyasining shu joyiga kelganda yigitcha og'ir xo'rsindi, shunda men uning yuragi ana-ana yoriladi deb o'yladim. Men unga tomon engashib: "Nima bo'ldi, xo'jam", deb so'radim. "O'z qalbimni biroz bo'lsa ham taskin toptirish uchun bir tomchigina ko'z yoshi istadim, ammo qani u?", dedi va jim bo'lib qoldi. Keyin bir nimalar deb shivirlayotgandek tuyuldi. Men yana unga engashdim va u sekin dedi: "Ey, Xudo, sen mening yorug' dunyoda kimsasiz, yolg'iz ekanimni bilasan. Men bir kambag'al odamman, mening suyanchim ham, qo'llab-quvvatlovchim ham yo'q. Men zaifman, notavonman, tirikchilikka qayerdan pul topishni bilmayman. Baxtsizlik meni yomon zabtiga oldi, yuragim so'nggi marta urayapti... Ey Xudo, axir sen O'zing menga jon ato qilgansan, men sening amringga shakkoklik qilib, o'z jonimga qasd qilolmayman. Shu bois, uni O'zing ol, menga bergan omonatingni ol, o'z dargohingga qaytar, Sening panohingda, Sening huzuringda bo'lish qanday baxt".

Shunday deb, yigitcha boshini changallaganicha zaif ovozda: "Boshim yonayapti, yuragim esa og'riqdan tars yorilay deyapti.

Mening umrim oz qolganga o'xshaydi... Olloh o'z amrini bajo keltirgach, siz meni sevgilim yoniga ko'mishga va mana bu xatni lahadga men bilan birga qo'yishga va'da berasizmi?", deb so'radi. Men: "Yaxshi, Ollohdan ruhingizni yengil qilishini so'rayman", dedim. "Endi men xotirjam jon beraman", dedi u. Bu uning so'nggi so'zlari edi.

Baxtsiz yigitcha borasidagi qayg'um uning vasiyatini ado etganimdan so'ng xiyol yengillashganday bo'ldi. Men uni o'sha amakisining qizi yoniga dafn qildirdim hamda o'sha qiz o'z oldiga kelishini so'rab yozgan xatni ham birga qo'ydim. Tirikligida bu chaqiriqqa kela olmagan yigitcha har qalay o'lgandan keyin yetib keldi-ku.

Shunday qilib, ikki murg'ak qalb birlashdi. Hayotlik davrlarida bu yorug' olamda ularga joy yo'q edi, ammo o'lganlaridan so'ng esa oddiy lahad ularga boshpana bo'ldi.